



## ONA TILI ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGA TISH

**Kodirova Aziza**

*Navoiy viloyati Qiziltepa tumani*

*19-maktabning ona tili va adabiyot o'qituvchisi*

Badiiy asarning didaktik tahlili - o'quvchining badiiy madaniyatini yuksaltiradi, estetik hodisalarni ko'rish, undan mantiqiy-hissiy ta'sirlanish, ular ta'sirida esa umumlashma xulosalarga kelish qobiliyatini shakllantiradi, o'quvchilarni kreativ fikrlashga undaydi. Chunki badiiy asar tahlili qilinayotganda, o'quvchining tafakkuri va hissiyoti faol ishslashga majbur bo'ladi. Badiiy asarlarning didaktik tahlilida yangi go'yalar tugilishi, masalaga mantiqiy yondashib, muammoni hal etishga o'rorganishi; qiyosiy tahlil konikmasi, axborot bilan ishslash madaniyati, mustaqil izlanuvchanlik, erkin muloqot, matematik savodxonlik kabi komponenetlarning shakllanishi barcha fanlarga moslashuvchanlikni ham ta'minlaydi. O'quvchilarning ma'nnaviyatini shakllantirishda asarlarni tahlil etish hal qiluvchi o'rinni tutar ekan, adabiyot darslarida hamkorlik ta'llim texnologiya va uslublaridan o'rinni foydalanish zarurati tug'iladi. Bu jarayonda o'quvchilarning ijodiy jamoa bo'lib ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida samarali natija ko'rsata oladigan hamkorlik ta'llim texnologiyalari vositasida jamoada kreativlikni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik tahlil namunalaridan keltiramiz:

6-sinf adabiyot darsligida Gafur Gulomning Shum bolaq qissasidan parcha berilgan. Asar qahramonlari xatti-harakatini belgilovchi va asar g'oyasini ochuvchi parchalarni qiyosiy tahlil qilamiz. Bunda ijobiy va salbiy tomonlari, afzallikkleri va nuqsonlarini ta'riflashga yo'naltirilgan Yelpigich texnologiyasidan foydalaniib, o'quvchilarga tanqidiy, tahliliy va aniq mantiqiy fikrlashlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini ixcham bayon etish, uni himoya qilishga imkoniyat yaratamiz hamda uning tasavvurini va dunyoqarashini belgilaymiz.

Yelpigich texnologiyasi muammoli mavzularni o'rorganishga, mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot berilishiga qaratilgan. Ayni paytda, ularning har bir alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallikkleri va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi. Bu interfaol texnologiya tanqidiy, tahliliy va aniq mantiqiy fikrlashlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, shuningdek himoya qilishga imkon yaratadi.

Yelpigich texnologiyasi mavzuni o'rorganishning turli bosqichlarida:

- boshida – o'z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o'rorganish jarayonida – uning asoslarini chuqr anglab yetish;
- yakunlash bosqichida - olingan bilimlarni tartibga solishda qo'llaniladi.

Texnologiyada uchraydigan asosiy tushunchalar:





Aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi.

Afzallik - biror narsa bilan qiyoslashda ustunlik; imtiyoz.

Fazilat- ijobiy sifat.

Nuqson- nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik

E'tiboringizni darslikda berilgan asardan parcha - mikromatnga qaratsak:

...Bu qishloqda Sariboy bo'lib degan katta yer egasi bor ekan. Uning ming tanoblab hisoblangan olmazoriga epchil qo'lli xizmatkor doim zarur bo'lib turar ekan. Ayniqsa, hozir olmalar pishgan vaqt bo'lgani uchun menga o'xshash oshtomog'iga yuradigan arzonqo'l kishilarni eshididan quvlamas ekan. Bu kecha uning xizmatkorlari yotadigan qo'shxonada yotishga qaror berdim. Uzumchi menga yo'llboslovchi bo'lib ko'rsatib qo'ydi. Boyning qari-qartang aralash yigirma choq xizmatkorlari kechki juvari go'ja ustida edilar.

Assalomu alaykum, deb kirib bordim. Juda mehribonlik bilan o'z o'rtaclariga qabul qildilar. Arz-dodimni ularga aytdim. Ulardan bitta keksarog'i:

Asil umring Sariboyda bekorga o'tib ketadi, uka, yosh ekansan. Bironta boshqa kasbning payidan bo'lganiningda yaxshi bo'lar edi. Ha, mayli, sal o'zingni tutib olguningcha o'n-o'n besh kun ishlab tur. Keyin yo'llingni topib olarsan... degan dudmal maslahat berdi. Bitta bo'sh sopol tovoqqa bir cho'mich go'ja quyib berdilar. Ikki burda jaydari non bilan shu oshni maza qilib ichib oldim.

ASPEKT	AFZALLIK	FAZILAT	NUQSON	XULOSA
Qishloq, Sariboy bo'lisning bog'i, ishchilarning norozi kayfiyatini va hk	Bu yerga ga kelishning afzalligi ming tanoblab olmazori bo'lgani uchun doimiy ishchi kuchi kerak va hk.	Boy arzonqo'l ishchilarни eshididan quvlamaydi. O'zini tutib olguncha ko'chada qolmaydi. Bolalarini yaxshi ko'radi va hk	Xasis, mehnatga yarasha haq bermaydi. Suhbatdoshini eshitmaydi. Ocharchilik muhitidan foydalanadi. O'zini go'yo himmati kishidek tutadi va hk	Boyning ming tanoblab olmazori bo'lgani uchun unga doimiy ish kuchi kerak. Yana qanday ishchi kuchi: faqat oshtomog'iga yuradigan, arzonqo'l ishchilarini oladi. Ayni pishiqlik mavsumida ishchilar haqini ololmasdan qiynalishadi. Ko'rinish turibdiki, boshqa payti ahvol undan ham qiyin.

Jamoa matn yuzasidan topshiriqlarni bajargach (jadvaldagagi fikrlar tayanch tushunchalardir, xolos, o'quvchi o'z dunyoqarashi bilan munosabatga kirishadi va fikrlar jamlanadi), asarning to'liq mazmuniga o'z nuqtai nazari bilan yondashadi. Shu yo'sinda bosh qahramon va uning atrofidagi obrazlar ham o'rganiladi.. Demak, bu hamkorlik texnologiyasining afzalligi ham shunda: muammolar, vaziyatlarni turli nuqtai nazarlari bilan tahlil qilish mahorati shakllanadi.





Bundan tashqari, o'quvchining asar tlini o'rganishi ham mohiyatni tugal ochishga xizmat qiladi. Masalan, matndagi tayanch so'zlarni aniqlab, asar qahramonlari bilan til topishadi; voqeа bo'lgan muhit va yozuvchining g'oyasini o'rganadi:

Tayanch so'zlar: yer egasi, tanob, xizmatkor, epchil qo'lli, arzonqo'l kishilar, qari-qartang aralash, qo'shxona, arz-dod, kasbning payida, dudmal maslahat, sopol tovoq, go'ja, jaydari non.

Yoki izohtalab so'zlar lug'at daftarga qayd etiladi, masalan:

Bo'lis - (r. volost ə egalik qilmoq) o'tmishda Rossiya va unga tobe hududlarda uyezd tarkibidagi bir qancha qishloqni o'z ichiga olgan ma'muriy bo'linma.

Tanob ə (a. ə arqon; pay) O'rta osiyo xonliklarida ə tomonlari 60 gazdan iborat bo'lgan maydonga teng yuza (yer) o'hlchov birligi.

Dudmal - nimaligi aniq bo'lmagan, har xil tushunsa bo'ladigan. Ma'modoshlari: mujmal, muhmal va hk.

Hali toqliq asar ustida ishlamasdanoq kichik matnning o'zida qo'llanilgan so'zlar orqali o'quvchi ocharchilik yillarini, kun o'tishi uchun keksa yoshdagilarning ham qora mehnatga jalb etilganligini tasavvur qila oladi. Boylarning mardikorlardan foydalanishi ham bejiz emas, mavsumiy ish boshlanganda mehnatiga faqat qorin to'yydirish bilan haq berib qutuladi. G'afur G'ulomning mana shu nursiz, qabohat va jaholatga to'la muhitni yosh bola nigohi orqali rang-barang mazmunga to'la holdagi tasvirini əkosa tagidagi nimkosa ə qabilidagi gaplardan anglab oladi.

"Kelishuv va ziddiyat ə rolli-ishchan o'yini texnologiyasining maqsadi o'quvchilarda mantiqiy va tanqidiy fikrlash hamda murosaga kelish mahoratini shakllantirish va bolalar huquqlari muammolari bilan bog'iq tushunchalarini aniqlash.

Quyida 8-sinf adabiyot darsligida(2019) berilgan Said Ahmadning ƏUfq ə trioliyasidagi ƏQochoq ə mavzusidagi parcha mazmuni didaktik tahlil qilish misolida mashg'ulotning o'tkazilishh tartibi bilan tanishamiz:

O'quvchilarga birin-ketin tasdiqllovchi fikr yozilgan tasdiqllovchi fikr yozilgan tarqatma materiallar ko'rsatiladi. Ularga berilgan fikrlarni qabul qilish yoki qilmaslik taklif qilinadi.Qabul qilgan o'quvchilar bir tomonidan, qilmaganlar ikkinchi tomonidan joy egallab, ikki guruhga ajraladi. Guruhlarning vazifasi ə o'z guruhlariga boshqa guruh a'zolaridan ko'proq kishini jalb qilish, ya'ni ularni o'z fikrlarini o'zgartirishiga olib kelishdan iborat. Har bir tasdiqlangan fikr ustida besh daqiqa ishlanadi.

Tarqatma materiallardagi fikrlar:

- Tursunboy hayotidagi ziddiyatlarga qarshi kurashida yakkalik qildi;
- Tursunboyning Əqochoq ə bo'lishiga ota-onasi ham sababchi;
- Jannat xola farzandi uchun muammoga duch kelsa ham chidaydi. Chunki u ə ONA!
- ƏBir bolaga yetti mahalla - ota-ona. Tursunboyni Azizbek singari qahramon bo'lishi uchun mahalla-kuy ham ta'sirini o'tkazsa bo'lardi va hakozo.

Ushbu fikrlarni tasdiqlagan jamoa fikrini dalilar bilan isbotlashga harakat qiladi va ta'sir o'tkazish natijasida qarshi guruhdan o'zlariga a'zo yig'adi.





## 2. Tahlil:

Mazkur bosqichning vazifasi: o‘yinni o‘tkazish vaqtida o‘z holatini tahlil qila olish va quyidagi savollarga javob berish:

- O‘yin shartlarini bajarish qiyin bo‘lmadimi?
- Ishni bajarish vaqtida nimalarni his etdingiz?
- Babs-munozara natijasidan qoniqdingizmi?
- Natijaga erishishingizda nima yordam berdi va nima xalaqit berdi?

Bu faoliyat hamkorlikda, ko‘tarinki ruhda o‘tishi ta‘minlanadi, ya‘ni sog‘lom fikr quvvatlanadi.

## Debat uslubi:

Debatlar 2 bu qarama-qarshi nuqtai-nazarlarning o‘zaro bahsi bo‘lib, u o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga, turli masalalarni o‘rganish va o‘zlari haq ekanligiga boshqalarni ishontirishga o‘rgatadi. Debatlar bu jamoaning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, bunda jamoaning har bir a‘zosi o‘zining burch va majburiyatlariga ega bo‘ladi, kim g‘alabaga erishganini esa debat yakunida jamoalarning argumentlari, faktlari, favqulodda savollar va ularga berilgan javoblar asosida hakamlar jamoasi yoki o‘qituvchi belgilab beradi. O‘quvchilar bilan debat o‘tkazganda 3 ta tamoyilga amal qilish kerak.


1. Debatlar ko‘p narsaga o‘rgatadi (chunki debat o‘tkazishdan maqsad faqat g‘alaba qozonish emas, balki asosiy maqsad debatlar yordamida yangi bilimlarni egallashdir).

2. Jarayonga faol ishtirok va vijdonlilik majburiyati.

3. O‘zaro hurmatni saqlash.

Debatda ikkita jamoa ishtirok etadi. 1-jamoa: Tasdiqlovchi tomon sifatida. 2-jamoa: Qarama-qarshi yoki inkor etuvchi tomon sifatida. O‘tkaziladigan debatning mavzusi aniq, tasdiqlovchi tugallagan fikr shaklida bo‘lishi kerak. Tasdiqlovchi tomon hakamlarni o‘z nuqtai-nazarlarning to‘g‘riligiga ishontirishga harakat qiladi. Inkor etuvchi tomon tasdiqlovchi tomon nuqtai nazarining noto‘g‘ri ekanligiga hakamlarni ishontirishga harakat qilishi kerak. Shuningdek, debat ishtirokchilari o‘z nutqai nazarlarini mustahkamlovchi dalillarni taqdim qilishlari lozim.

9-sinfda munozarali darslarni tashkil etishda Debat(yozma, og‘zaki)uslubi yaxshi natija ko‘rsatadi. Masalan, adabiyot darsligidan Sharof Boshbekovning Temir xotin dramasi o‘rganilganda bu texnologiyaning mantiqiy fikrlashning, kreativlikning namoyon bo‘lishini kuzatasiz.





Mavzu: Yetti yillik mehnatiga, yañni Temir xotinning kuyib ketishiga Olimjonning ozi ham sababchi boyla oladimi?

Ha.

Olimjonning ozi sababchi

Javob:

Dalil keltirmoq:

Axir, u texnika, meyordan oshib ishlatsa kuyib ketadi-da. Aytgan chiziginingizdan chiqmasa, hamma ishingizni qilsa sigir sogishmi, kir yuvishmi, ovqat-povqat deganday, fotihaga balo bormi! E, tavba Xoپ, erta yo indin terim boshlanadi? Olimjonning ozi rozi boilib oltiribdi, Qoچqor akaning hamma ishlariga.

Yoq.

Javob:

Olimjonning shuncha mehnatini koikkha Sovurgan Qoچqor aka boлади. Dalil keltirmoq: Belgilangan vaqtdan koپ ishlashga buyruq berdi. U buyurilgan ishni yoq demasdan qilaverdi, qilaverdi, oqibatda kuyib ketdi. Mana uning javobi: E, Olimtoy, terim nima bopti? Ayol zotining, vey, joni toshdan boлади uyniyam eplaydi, dalaniyam. Korib yuribmiz-ku?

Ha.

Javob:

Olimjon qarindoshi Qoچqor akaga sinov uchun bermaslik kerak edi. Dalil keltirmoq: Agar ozi nazorat qilganda shu holga kelmasdi. Qoچqor aka faqat dehqon boлган, texnikani yuritishni qanday tushunsin?

Yoq.

Javob:

Xotini zimmasidagi hamma ishni Alomatdan (temir xotin) talab qiladi. Dalil keltirmoq: Ertalabdan kechgacha ishlataadi. Olimjonning kuyinib gapirishiga eтibor bering: Ekspluatatsiya! Ertalabdan kechgacha tindirmadingiz-a! Bir minut dam olgani yoq, bechora! Yuv, tozala, tik, yama-supur! Bir chaqirim naridan suv olib kelib, kir yuvadi! Manavi tezak yoqiladigan laнати oлchogингизда ovqat qiladi! Yeb toymaydigan ochofat mollarlingiz bor: ertalabdan kechgacha oлt ber, suv ber, yem ber! Xamir qoradi, sigir sogadi, kuvi pishadi! E, bu uyingizning ishi tugaydimi, ozi! Bundan tashqari, dalaga chiqadi! Ming chanoqqa ming egilib, paxta teradi! Qirq-ellik kilo narsani koтарib, xirmonga olib boradi! Shunaqayam qiyaydimi, Qoچqor aka?!

Ha.

Javob:

Temir xotinni Qoچqor akaning yashash tarzini bila turib shu yerga olib keldi. Dalil keltirmoq: Olmjonning gapiga eтibor bering: Xafa boлmang-u, Qoچqor aka, lekin kennoyimga ham qiyin-da. Ahvolni qarang: haliyam oлchoq, haliyam tezak yoqiladi. Progress yoq. Qishloq ayollari uyim-joyim, turmush оrtogim, bola-chaqam, оltin paxtam deb ertalabdan kechgacha tinim bilmaslikka оргangan. Ularning oddiy hayot tarziga aylanib ulgurgan muhitga texnika ham chidamaydi.

Yoq.

Javob:

Olimjonga qarata javobiga eтibor bering: Progress bor. Ilgari tezak yoqilardi, hozir tezakni solyarka bilan yoqayapmiz. Yaxshi yonayapti. Toғri ovqatdan sal-pal hidi keladi-yu, lekin оrganib ketar ekan odam. Hech kim mehnatdan олmaydi. Qoچqor akaning mana bu tushunchasi Temir xotinni nobud qildi. Dalil keltirmoq: Axir u temir-ku, Qoچqor aka, temir. Uni ehtiyyot qilish kerak, avaylash kerak. U oлzini оylamaydi, qiynalib ketdim deydigani tili yoq. Indamas ekan, deb eshakday ishlataveradimi axir! Paq etib joni chiqib





ketguncha ezaverish kerakmi?! Yo'q, yuragi tosh odamsiz, Qo'chqor aka! Olimjonning xunob bo'lganicha bor: Qo'chqor aka xotinining qiladigan yumushlarini odatiy hol deb biladi. U hech ham xatosini tushunmaydi. Chunki o'zi ham robotday buyruqni bajaruvchi bo'lgan.

Ha.

Javob:

Olimjon yetti yillab ilmini, kuchini, vaqtini sarflab yaratgan kashfiyotini asray olmadi.

Yakuniy fikr: Asrash kerak

edi. U temir, matoh. Ko'p ishlasa qizib ketadi. Ishdan chiqqanda yaxshilab qaralmasa foydasiz buyumga aylanadi. Aslida inson ham shunday: me'yordan ortiq harakat, dam olmaslik oqibatida sog'ligini yo'qotadi. Shuning uchun borini qadrlash va asrash kerak.


Yo'q Javob: Qo'chqorning: «Iye, unda chindan ham odamga o'xshar ekan. Mana, biz ham oxpaxta terimiga degan gapni eshitishimiz bilan hamma ishimizni yig'ishtirib qo'yib, dalaga chiqib ketamiz. Bolalarimiz o'qishini tashlaydi, xotinlarimiz emizikli bolasini... sozlarini uning dunyoqarashini ko'rsatadi. Yakuniy fikr: «Bu odam emas-ku, Qo'chqor aka, temir-ku, nega tushunmaysiz?! Ichi to'lla sim, plastmassa, yarimo'tkazgichlar! Bu o'mashina. Ertaga sinovdan o'tolmasa-yu, buzib tashlasam nima bo'ldi? Bir uyum temir qoladi.» Haqiqatdan ham o'z qarichi bilan ish tutgan Qo'chqor aka oldida bir uyum temir qoldi.

Yuqorida berilgan debat qisqartirilgan shakli, ya'ni faqat robotning kuyib ketishiga sabab biryoqlama izlandi. Bu yog'iqa asarda yoritilgan har bir sahna ko'rinish va qahramonlar so'zi baholanadi: Xotini to'g'risida Qo'chqorning: «Mastligimda urib, mayib-payib ham qilib qo'yymagan ekanman? Jimgina uyda o'tirardi, Qumri bilan desangiz, jim o'tirib ham gaplashaverardik. Ichimizda, Qumrining qo'llari qadoq bosib, yorilib ketgan bo'lsayam, bir nimasi bor edi-da... O'sha nima ekan-a? Bo'lmamasam, barmoqlarini ko'sak tilib, g'adir-budur qilib tashlagan. Qo'lidan doim kirsovun aralash tappi hidi kelib turadi. Lekin nimasidir bor edi...» kabi fikrlarini mag'zini chaqish orqali asar g'oyasini o'rorganiladi. Bu uslub o'quvchilarga tengdoshlari bilan bigalikda shu oila jamoatchilik fikrini to'qlinqantirayotgan mavzularda muloqotlar rejalshtirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda didaktik tahlil o'quvchilarni nafaqat ijodkorligini, tasavvur dunyosini boyitadi, balki birdamlik, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantiradi.

Hamkorlik ta'lim texnologiya va uslublarining ahamiyati ham shundaki, badiiy asar tahlili orqali jamoalar fikri to'liq o'rorganiladi, har bir a'zoning dunyoqarashi muhim hisoblanadi. Fikrini erkin isbotlashga, dalil keltirishga harakat qiladi. Fikrlar solishtiriladi. Mantiqqa tayanadi. Tasavvur dunyosi kengayadi. Ikkilanishdan voz kechadi. Qat'iylik bilan o'z g'oyasini himoya qiladi. Noodatiy fikrlar tizimi umumlashtiriladi. Yangi g'oyalar o'rorganiladi. Zero, inson tafakkuri qanchalik mustaqil bo'lsa, u shunchalik tashshabuskor bo'ldi. Uning fikrlashi qancha erkin bo'lsa, u shuncha izlanuvchan, ijodkor bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:





1. Umumiy o'rta ta'limning ona tili fanidan davlat ta'lim standarti va o'rquv dasturi. Toshkent-2017
2. 11-sinf. Adabiyot. II qism Boqijon To'xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova Toshkent - 2018
3. 10-sinf. Adabiyot. I qism Boqijon To'xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova Toshkent - 2017
4. 9-sinf. Adabiyot. Qozoqboy Yo'ldoshev, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo'ldoshbekov. O'zbekiston NMIU Toshkent 2019
5. 8-sinf adabiyot darsligi Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo'chqorov Toshkent 2019
6. 7-sinf. Adabiyot darsligi Qozoqboy Yo'ldoshev, Begali Qosimov, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo'ldoshbekov. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri Toshkent 2017
7. 6-sinf. Ona tili darsligi N. Mahmudov, A. Nurmonov A. Sobirov, D. Nabiyeva. «Tasvir» nashriyot uyi Toshkent 2017
8. 6-sinf. Adabiyot darsligi. I qism (S. Ahmedov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev, I qism. Toshkent «Mavnaviyat» 2017
9. K.Hoshimov, S. Nishanova, M. Inomova, R. Hasanov. Pedagogika tarixi. T., Oqituvchi 1996
10. M. Pardayeva. Oqituvchi kasbiy kompetentligi ta'lim-tarbiya masalasining hal etuvchi omili sifatida. 2016
11. R. Ishmuhamedov, M. Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2016
12. Maktab bitiruvchilarining kreativ fikrlashini baholash, PISA-2021 ga tayyorgarlik ko'rish uchun taqdimot.
13. Safayev N.S., Mirashirova N.A. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti TDPU, 2013 y, B.124-137.
14. 3.Saidahmedov N.Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya T;2003
15. A. Xo'jayev. Didaktik tahlil (internetdan olindi)
16. RTM. Uz. Aim.uz,

